

OTNI O‘TISHDA TA’LIMYI DIKTANT TURLARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Rahmonova Dildufuzaxon Munavvarjon qizi

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

*Ilmiy rahbar: **Parpiyev Odil Olimovich***

Ta’lim kafedrası dotsent v.b.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’limiy diktant turlaridan foydalanish usullarini o‘rganish, ularni ta’lim jarayoniga qanday tatbiq etish mumkinligi, shuningdek, pedagogik faoliyatda ularning o‘rni haqida batafsil tahlil qilingan. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida ot so‘z turkumi mavzusini o‘tishda ta’limiy diktant turlaridan foydalanishning afzalliklari yoritilib, yangicha usullarni qo‘llash haqida tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: ta’limiy diktant, ot, so‘z turkumi, o‘quvchi, usul, rivojlanish, darslik.

O‘zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma’qullangan Ta’lim to‘g‘risidagi qonunning 9-moddasida shunday deyilgan: ”Boshlang‘ich ta’lim ta’lim oluvchilarda umumiy o‘rta ta’limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan”¹.

Boshlang‘ich ta’limning muhimligi shundan iboratki, bu bosqichda o‘quvchilar uchun ta’limning poydevori qo‘yiladi va ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari ko‘pincha boshlang‘ich ta’limdagi olingan bilim va ko‘nikmalarga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun boshlang‘ich ta’lim tizimini samarali tashkil etish, zamon talablariga moslashtirish va o‘qituvchilarning malakasini oshirish har bir jamiyat uchun ustuvor vazifalardan biri demakdir.

O‘zbekistonda ta’lim tizimi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, boshlang‘ich va o‘rta ta’limda zamonaviy metodlarni qo‘llashga katta ahamiyat berilmoqda. Bu islohotlarning asosiy maqsadi, ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etish va yosh avlodni zamon talablariga mos ravishda tarbiyalashdan iborat. Bu vazifa, albatta, biz o‘qituvchilarga ulkan mas’uliyat yuklaydi. Bu borada davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev quyidagi fikrlarni bildirgan: “Hammamiz aziz farzandlarimiz hayoti va taqdirini o‘qituvchi va murabbiylarga ishonib topshiramiz. Mana shunday beqiyos boylik posbonlari, kelajak bunyodkorlari bo‘lgan bu mo‘tabar zotlarga munosib hurmat-ehtirom ko‘rsatishimiz

¹ <https://lex.uz/docs/-5013007>

kerak.² Yurtboshimiz bildirgan bu fikrlar, albatta, o‘rinli va ahamiyatli hisoblanadi. Chunki o‘qituvchilar jamiyatda juda katta ahamiyatga ega, negaki ular kelajak avlodni tayyorlashga yordam beradi. O‘qituvchining ishi ko‘pincha uzoq va mehnat talab qiluvchi bo‘lsa-da, ularning roli jamiyatning taraqqiyotida muhim hisoblanadi. O‘qituvchilik kasbi o‘z mohiyatiga ko‘ra o‘ta individualdir. Har bir o‘qituvchining muhim hayotiy o‘rni, uning o‘z ishining ustasi bo‘lishdir.³

Bugungi kunda ta‘lim sohasida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta‘lim jarayonida an‘anaviy usullarni takomillashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish dolzarb masalalardan biri demakdir. Davlatimiz rahbari yordamchisi Saida Mirziyoyeva ham bu borada quyidagi fikrlarni bildirib o‘tgan: “So‘nggi yillarda boshlang‘ich sinflar uchun yangi maktab darsliklari hamda zamonaviy o‘quv metodikasi joriy qilindi, maktablardagi kompyuter xonalari butunlay yangilanmoqda. O‘qituvchilar paxta qulligidan mutlaqo ozod qilinib, ularning huquqlari qonun bilan mustahkamlandi. Har qanday majburiy mehnat uchun jinoiy javobgarlikkach bo‘lgan jazo belgilandi”⁴.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning yozuv ko‘nikmalarini shakllantirish va mustahkamlashda ta‘limiy diktantlardan foydalanish samarali metodlardan biri hisoblanadi. O‘tish davrida, ya‘ni o‘quvchilarning yangi bosqichga moslashuvi davrida, diktantlardan foydalanish nafaqat savodxonlikni oshirish, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish va matnni anglash qobiliyatlarini rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega. Mazkur mavzuning dolzarbligi ta‘lim tizimida o‘quvchilarning ona tili va o‘qish savodxonligi fanlariga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning nutq madaniyatini rivojlantirish hamda ijodiy fikrlashga undash zaruriyatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, ta‘limiy diktantlardan foydalanish metodikasini ilmiy asoslash va uni amaliyotda keng tatbiq etish hozirgi zamon pedagogikasi oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Shu sababli ham mazkur maqolada ta‘limiy diktantlarning ona tili darslarida otni o‘tish jarayonidagi ahamiyati va ulardan samarali foydalanish usullari yoritilgan. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tili darslarida mustaqil so‘z turkumlaridan biri bo‘lgan ot so‘z turkumi bilan tanishtirishda ta‘limiy diktantlardan foydalanishning samarali jihatlarini ko‘rib chiqamiz. Grammatik jihatdan ot so‘z turkumi degan atama boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga 3-sinfda o‘rgatiladi. Lekin o‘quvchilar 1- sinfdanoq ot so‘z turkumi bilan tanisha boshlaydilar. 1–2-sinflarda

² Prezident Sh.Mirziyoyevning “O‘qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag‘ishlangan tabrik nutqi. Toshkent, 2020.

³ PEDAGOGIK MAHORAT VA UNGA ERISHISH YO‘LLARI

⁴ <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/saida-mirziyoeva-biz-jadidlarning-talim-borasidagi-goyalarini-hayotda-qullashga-intilmoqchimiz>

soʻz turkumi sifatida otning belgilari (nimani bildirishi, soʻroqlari) oʻrganiladi, 3-sinfda esa otga atama beriladi, birlik va koʻplikda qoʻllanishini oʻzlashtirishga ahamiyat beriladi. 4-sinfda otning egalik qoʻshimchalari bilan qoʻllanishi, kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qoʻshimchalarining yozilishini oʻrganishga eʼtibor qaratiladi.⁵

Taʼlimiy diktantlar — bu oʻquvchilarning yozma nutqini rivojlantirish, yozish koʻnikmalarini oshirish va ularning eʼtiborini yaxshilashga qaratilgan vositadir.

Taʼlimiy diktantning quyidagi turlai mavjud.

1. Lugʻat diktanti.
2. Saylanma diktant.
3. Koʻrsatuv diktanti.
4. Yoddan yozuv diktanti.
5. Taʼkidiy diktant.
6. Izohli diktant.
7. Ijodiy diktant.
8. Erkin diktant.

Yuqorida keltirilgan taʼlimiy diktant turlaridan foydalangan holda ot soʻz turkumini oʻtishda yangi usullar bilan darsni tashkil qilamiz. Masalan: Bir matn tanlab olamiz. Tanlab olingan matnni oq lisga chiqarib olamiz. Sinf aʼzolari soniga qarab, ularni guruhlariga ajratib olamiz. Har bir guruhga matn beriladi. Oʻquvchilar matnni oʻqib, undagi ot soʻz turkumiga oid soʻzlarni tanlab yozadilar. Qaysi guruh birinchi va toʻgʻri bajarsa, oʻsha guruh gʻolib hisoblanadi. Bunda oʻquvchilarda jamoa boʻlib ishlash qobiliyati, tez oʻqish va tez fikr qabul qilish imkoniyatlari oshadi va ot soʻz turkumiga oid olgan bilimlari mustahkamlanadi. Taʼlimiy diktant quyidagi matn asosida oʻtkazildi. “Halollik”

Sobir maktabga kelayotgan edi. Yoʻlda pul topib oldi. Atrofga qarasa, hech kim yoʻq. U maktabga kelib, oʻqituvchiga aytdi. Pul Yoqub Kamolovniki ekan. Yoqub Sobirga rahmat aytdi.

Namuna: Sobir, maktab, pul, oʻqituvchi, Yoqub Kamolov.

Diktant oʻtkazilgandan soʻng oʻqituvchi oʻquvchilarga quyidagicha savol berishi mumkin: Maktab soʻzi qaysi soʻroqlarga javob boʻladi? Kim soʻrogʻiga javob boʻluvchi soʻzlar qaysi?

Taʼlimiy diktant turlaridan foydalanishning maqsadi va ahamiyati quyidagilardan iborat:

1. Yozma nutqni rivojlantirish.
2. Imlo va grammatika qoidalarini mustahkamlash.

⁵ Qosimova K. va boshqalar. Ona tili oʻqitish metodikasi. Darslik. Toshkent: «N OSIR» nashriyoti, 2009.

3. E'tiborni oshirish.
4. Yozish tezligini oshirish.
5. Lug'at boyligini kengaytirish.
6. Fikrni to'g'ri ifodalashni o'rganish.
7. Ko'nikmalarni baholash.
8. Kreativlikni rivojlantirish.

Ta'limiy diktantlar o'quvchilarning yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini yaxshilash, imlo va grammatika qoidalarini o'zlashtirishda muhim vositadir. Ularning muntazam ravishda o'tkazilishi o'quvchilarning umumiy til madaniyati va yozish qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, ona tili darslarida ta'limiy diktantlardan foydalanish o'quvchilarning ot so'z turkumi bo'yicha bilimlarini mustahkamlashda samarali usul hisoblanadi. Bu usulni qo'llash orqali o'quvchilarning nafaqat grammatik bilimlari, balki tahlil qilish va ijodiy fikrlash qobiliyatlari ham rivojlanadi. Shunday ekan, o'qituvchilar bu usuldan keng foydalanishlari tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. **Pezident Sh.Mirziyoyevning "O'qituvchi va .murabbiylar kuni"ga bag'ishlangan tabrik nutqi.** Toshkent, 2020.
2. **Pedagogik mahorat.** A. Xoliqov. Toshkent."Iqtisod-Moliya" 2011-yil
3. **Mirziyoyeva S. "Biz jadidlarning ta'lim borasidagi g'oyalarini hayotda qo'llashga intilmoqchimiz".** <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/>
4. **Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi.** Darslik. Toshkent: «N OSIR» nashriyoti, 2009.
5. **DIKTANTLAR TO'PLAMI. Q. ABDULLAYEVA, S. RAHMONBEKOVA.** Toshkent. " Vektor -Press." 2011- yil